

**MAKTABGACHA TA'LIM VA BOSHLANG'ICH SINF DOIRASIDA XORIJY TILLARNI
O'QITISH, VA O'QUV MEDODLARI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7830992>

Sharipova Muhayyo Erkin qizi

*O'zbekiston Milliy Universitetuti XFF nemis tili filologiyasi yo'nalishi
3-kurs talabasi Tel: 99 061-69-30*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada sifatli ta'limga erishish uchun Maktabgacha ta'lim muassasalari va boshlang'ich sinflarning roli, hamda xorijiy tillarni o'qitishda o'quv metodlari haqida fikr yuritildi.*

Kalit so'zlar: *Ta'lim, sifat, samara, tarbiya, qiziqtirish, eshitish, tushunish, gapirish*

Ta'lim - millat ko'zgusi, ta'limga e'tibor - jamiyatga, millatga e'tibor demak. Ma'naviyati, ma'rifati yetuk jamiyatda izlanuvchan, tafakkuri teran yoshlar kamol topadi hamda ular ishtirokida farovon kelajak bunyod bo'ladi. Bunday sog'lom jamiyatni barpo etish uchun qaysi soha vakili bo'l shidan qa'ti nazar har bir shaxs ma'suldir, chunki ta'limning negizi tarbiya, tarbiyaning negizi ta'limdir. Bizning bobokalinlarimiz ham bu masalalarni azaldan yuqori o'ringa qo'yib kelishgan. Yetuk mutafakkir bobomiz Abdulla Avloniy aytganlaridek "Tarbiya biz uchun - yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masaladidir". Biz ta'lim-tarbiya masalalariga ahamiyat qaratib, yurt ravnaqi uchun yuqori marralarni ko'zlar ekanmiz avvalo, unga eltguvchi poydevor bo'lib xizmat qiladigan maktabgacha ta'lim muassasalariga hamda boshlang'ich sinf doirasiga yanada ko'proq e'tibor berishimiz lozim. Ayniqsa xorijiy tillarni o'rganishda bolalaring yoshiga mo'ljallangan metodlardan kelib chiqib, turli o'yinlar, kichik muloqot shakllari orqali bolalar onggiga singdirsak, kelajakda ularning til bilish darajasi yanada kengayadi, bir necha tilda bemalol dunyo yoshlari bilan fikr almashish va yutuq-kamchiliklar borasida bahs-munozara qila olish, inovatsion yutuq va yangiliklar ko'lagini yurtimizga tadbiq eta oladigan va bular yordamida yangi O'zbekistonni yaratishda munosib hissa qo'shadigan yoshlar kamol topadi.

Yosh avlodga bo'lgan munosabatimiz, ertangi kunga bo'lgan munosabatimizni belgilaydi. Shunday ekan biz amalga oshirishimiz zarur bo'lgan muhim narsa, kekajagimiz poydevori bo'lgan yoshlarimizning sifatli ta'lim olishga ko'maklashishdir. Bizga sir emaski bugungi kunda xorijiy tillarni bilish zamon talabi hisoblanadi, nafaqat yoshlar doirasida, balki 50-60 yosh doirasida ham chet-tilini o'rganishga bo'lgan talab bor. Ammo ular til o'rganishda bir qancha qiyinchiliklarga duch kelishyabdi. Kekajakda bunday qiyinchiliklarga duch kelmaslik uchun biz xorijiy tillarni o'rgatishni nafaqat maktab yoshidagi bolalardan balki, maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshlashimiz

kerak degan fikrdaman. Sababi maktabgacha ta'lim doirasida bolaning nutqi rivojlanan boshlaydi, eslab qolish qobilyati yuqori bo'ladi. Bu vaqtida xorijiy tillarni o'rganishda ko'pchilkda muammo bo'ladigan nutq texnikasi yaxshi rivojlanadi, bola mutlaqo qiyinchiliksiz va muammosiz boshqa bir tilni o'rgana oladi. Innavatsion g'oyalar asosida, puxta ishlangan medodlarni tadbiq qilish, bola tiliga, diliga yaqin bo'lgan materiallardan faol foydalanish ya'nini bola qaysidir o'yinchoqni sevib o'yashi, qaysidir ertak qahramoni o'rnida o'zini ko'rishi, unga tegishli nimalargadir taqlid qilishi mumkin. Bu jarayonda bolaga notanish so'zni o'sha timsol oraqli tanitib, bola o'zini o'sha ertak qahramonlari yoki sevimli o'yinchog'i uchun qahramondek his qilishiga erishsak, u chet tiliga yanada qiziqadi, muhimi biz bolalarni o'zini erkin tutishi va oddiy so'zlarini ham mumim bir qarashdek rag'batlantirib tursak bolaning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirib, qaysi sohaga yo'nalishidan qa'ti nazar katta yutuqlarga yetishishiga umid bog'lay olamiz. Biz chet tili darsini bir o'zin shakliga keltirsak kichik yoshdagagi bolalarni qiziqishini yanada oshirgan bo'lamiz. Shu bilan birgalikda ularning faollik darajasi ham o'sib boradi. Bolalar chet tilini o'rganish mobaynida multfilmlar ko'rsa undagi gaplarni tushunmasa-da, qahramonlarning harakatlari orqali ular ishlatayotgan so'zlarni tushunishga harakat qiladi. Bu esa bolalar uchun til o'rganishda qiziq va samarali yo'l hisoblanadi. Bog'cha va maktab yoshida o'zin bolaning eng asosiy va sevimli mashg'uloti bo'lganligi sababli bola borliqni ham o'zin orqali kashf etadi. Agar xorijiy tillarni ham o'yinga bog'lagan holda o'rgatsak bu yangi til ko'nikmalarining o'zlashtirilish samaradorligini bir necha barobarga oshiradi.

"Chet tilida so'zlashishni yosh bola kattalarga o'xshab yillar davomida emas, balki bir necha oylarda yaxshiroq o'rganib oladi" deya yozadi K.D. Ushinskey, olimning fikriga ko'ra chet tilini o'rganish quyidagi maqsadlarni amalga oshirishga yordam beradi. Birinchi maqsad – til o'rganayotgan xalqning ijodi bilan tanishish. Ikkinchisi esa, mantiqiy fikrlash doirasini kengaytirish, chunki til o'rganish insonning miya faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, uni har tomonlama rivojlanadiradi. Uchinchi maqsad – shu xalqning madaniyati bilan yaqinroq tanishish va ular bilan oson muloqotga kirisha olish. Keyingisi esa, shu xorijiy mamlakat odamlari bilan bemalol o'zlarining tillarida xat yozisha olish ko'nikmalarini shakllantirishdir.¹

¹ K.D. Ushinskey. <https://fayllar.org/aktabgacha-talim-tashkilotlarida-muassasalarida-chet-tillarini.html>

I. A. Zimnyayaning fikriga ko'ra esa, "bolalar ta'lim jarayonida ona tili tajribalariga tayangan holda, chet tilini o'rganishlari kerak, faqat shundagina xorijiy so'zlarni xotirasida saqlash oson kechadi"². Olimlarning ta'kidlashicha 5-6 yoshdan 10 yoshgacha bo'lgan bolalarga xorijiy tillarni o'rgatish samarali ekan. "Chet tilini o'rganishning eng qulay davri – olti yosh ekanligi Yevropa qo'mitasi tomonidan o'tkazilgan millatlararo anjumanda ham o'z tasdig'ini topgan"³. Buni psixolog olim A. A. Leontev ham tasdiqlagan, chunki uning fikricha, chet tilini o'rganishda aynan olti yosh eng qulay davrdir. Bunday vaqtida bolalarda ichki turtki va yangi tilga qiziqish kuchli

bo'ladi, Bu davrda o'rganilgan narsalar mustahkam poydevorga ega bo'ladi, va o'rganish ko'nikmalari yuqori bo'ladi.

Maktabgacha ta'limning asosiy maqsadi - bolalarni mактабдаги о'qishga tayyorlash, qobiliyatlarini yuzaga chiqarish, o'qishga, bo'lgan ishtiyoqini shakllantirishdan iboratdir. Bu ko'nikmalarga ega bo'lgan bola maktabda yangi tizimga oson moslashadi va yangi bilimlarni o'rganishga tayyor bo'ladi. Ammo pedagog dars rejasini bolalarning dunyoqarashidan kelib chiqqan holda tanlashi kerak. Erkin yurishga o'rgangan bola 45 minut darsda diqqatini jamlab o'tirishga biroz qiynalishi mumkin, avval bolani shu muhitga sekin ko'niktirish, darsni do'stona muhit yaratish oraqli tashkilashtirish orqali biz sifatli ta'lim va xorijiy tillarni o'rgatishga bo'lgan dadil qadamni tashlaymiz.

O'qitish metodikalariga to'xtaladigan bo'lsak, boxcha yoshidagi bolalarni maktabga yo'naltirish maqsadida qisqa til ko'nikmalarini shakllan-

² Zimnyaya, 1991. <https://fayllar.org/aktabgacha-talim-tashkilotlarida-muassasalarida-chet-tillarini.html>

³ G. Grats, 1998. <https://fayllar.org/aktabgacha-talim-tashkilotlarida-muassasalarida-chet-tillarini.html>

tirishimiz kerak bo'ladi. Bunda bolalarning dunyoqarashidan kelib chiqib rang-barang, qiziqarli materiallar, rasmlar, o'yinlar orqali ularga ta'sir o'tkazsak, bolada bevosita qiziqish uyg'onadi va kerakli bilim-ko'nikmalarni oson o'rganadi. O'yin bolani o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga va tez moslashishga yordam beradi. Aynan o'yin orqali bolalar ta'lim oladilar va o'z iqtidorlarini ham namoyon qila boshlaydilar. Bunga erishish uchun sezgi organlarini faollashtiruvchi muhitni, jumladan turli ta'limiy o'yinlar, tinglab tushunish va ko'rish kabi faol ta'lim turlaridan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ta'limiy o'yinlar musiqa asboblarnini chalish, qo'shiqlar kuylash, she'r aytish, raqsga tushish, o'yin o'ynash, videolar tomosha qilish, qo'l mehnati vositasida turli narsalar yasashni o'z ichiga oladi. Bolalarda o'yin orqali diqqat, xotira va idrokni qiyinchiliklarsiz shakllantirish mumkin. Chunki bola o'yin jarayonida o'zini erkin his etadi. O'yin o'ynalayotgan paytdagi ma'lumotlarni ham bajonidil qabul qiladi. Ya'ni o'yin faoliyati orqali beriladigan ma'lumotlar bolalar xotirasidan yaxshi saqlanadi. Bu xorijiy tillarni o'rganishda katta yordam beradi. Ko'rgazmali ish qurorollari sifatida bolalar ko'proq o'ynaydigan o'yinchoqlardan foydalanishimiz, rasmlli ertaklar tuzib uning qahramonlarini tanishtirishimiz, qo'shiqlarga raqasga tushish orqali so'zning talaffuzini bolada shakllantirishimiz yoki bo'lmamasam, ularda eslab qolish qobiliyati yuqori bo'lgani uchun kichik she'rlar o'rgatib, talaffuzini to'g'ri yo'lga qo'yishimiz, oila, do'stlik kabi so'zlarni o'rgatayotganimizda xayoliy qahramonlarini rasmlarda ifodalashini aytib, keyin bu so'zlarni boshqacha nom bilan atab, yangi so'zlarni yod oldirishimiz orqali, o'ylaymanki ilk qadamni tashlagan bo'lamiz. Endi maktab yoshidagi bolalarga to'xtaladigan bo'lsak, ularga ham bolalik olamidan uzoqlashmagan holda, har bir harakatini rag'batlantirib borsak ularda qiziqishi ortadi, birdaniga murakkab

gramatik qoidalari bilan boshlay olmaymiz, bu davrda bola o'yin qaroq bo'ladi va darsdan tez bezib qolishi mumkin. Biz har bir harf yoki so'zni qiziqarli rasmlar, rang-barang kartichkalar va hatto shirinliklar yordamida taqdim qilsak, bolalar uchun ham qiziqarli, ham esda qolarli bo'ladi. Biz sinfda raqobat muhitini yaratish berishimiz lozim, har bir bola o'zini qahramondek his qilishni, maqtalishni hohlaydi, biz tabiiy va sun'iy ravishda bu muhitini yaratish berishimiz kerak, bolani e'tiborini tortib, har bir fikrini qo'llab-quvvatlasak, kamchiligin tanqidsiz, xushmuomilalik bilan to'ldirsak, bolada ishonch paydo bo'ladi, xato bo'lsada urinib ko'rishdan cho'chimaydi, va nimadir o'rganadi. Bu esa pedagog uchun katta yutuqdir. Multfilmlardan parchalar taqdim etsak, bolalarda tinglab, ko'rib tushunish bilan bir qatorda ma'lum bir tushuncha ham paydo bo'ladi. Eshitgan, ko'rgan narsasini taqlidan shu ohangda, shu obrazda takrorlab yuradi, bu ham bir kichik yutuq. Bolalarning barchasi birdek faol bo'lishini ta'minlashimiz kerak. Obrazli, rolli o'yinlar, zanjir o'yinlari, pantoniyma kabi harakat o'yinlaridan foydalanish ularni yanada faollikka undaydi. Maqsadimiz bolalarga gramatik qoidalarni tushuntirish emas, aksincha muloqot maydonini yaratish va shu maydonga bola o'zini erkin his qilishini ta'minlash. Muloqot ko'nikmasi shakillangan bola bisqichma-bosqich gramatik qoidalarni ham o'rganadi, ammo biz boshida bolani zeriktirib qo'ymasligimiz kerak.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, bugungi kunda xorijiy tillarni o'rganish zamon talabi. Kelajagimiz yoshlari bir emas, bir nechta tilda ravon gapirish, fikr almashish ko'nikmasiga ega bo'lishi lozim, bunga erishish uchun biz boshlang'ich poydevorni mustahkam qilishimiz ya'ni Maktabgacha ta'lim muassasalari va boshlang'ich sinflarga sifatli va samarali ta'lim berishimiz zarur. Buning uchun ularning yosh doirasiga xos va mos qiziqarli, rolli, shakkli o'yinlarni o'z ichiga olgan ta'lim metodlardan foydalansak o'rinli bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Maxmudov, Q. S. O. G. L., Shayxislamov, N. Z. O. G. L., & lo, B. B. O. G. L. (2020). O'zbek va xorijiy tillarda antonimlar tavsifi, o'rni va ularning turli jihatdan tasniflanishi. Science and Education, (Special Issue 3).
2. Juraboyev, B. B. (2020). Nemis tilini o'qitishda kommunikativ yondashuv. Science and Education, 7(7), 215-220
3. <https://cyberleninka.ru/article/n/maktabgacha-talim-jarayonida-xorijiy-tillarni-o-qitishning-zamonaviy-metodikalari>
4. <https://fayllar.org/aktabgacha-talim-tashkilotlarida-muassasalarida-chettillarini.html>
5. <http://newjournal.org/index.php/new/article/download/1392/1241>
6. Рахманова, М. К. (2019). Ёшларнинг маънавий тарбиясида кадимги Ўрта Осиё маънавий-маданий меросининг аҳамияти. "Глобаллашув шароитида ватанпарварлик

тарбиясининг маънавий-маърифий технологиялари" республика илмий-амалий конференцияси, 206-209

7. Jalolov, Jamol Jalolovich. Chet til o'qitish metodikasi: chet tillar oliy o'quv yurtlari 81.2 J-22 (fakultetlari) talabalari uchun darslik / J.J. Jalolov. - Toshkent: O'qituvchi, 2012. - 432 b.